

UOK: 81'22.

## MATN INTERPRETATSIYASI TAHLILI

Xavaxon Shokirova Nurmatovna

University of Business and Science filologiya fanlari doktori, v.b.professori

E-mail: [shokirova01.72@gmail.com](mailto:shokirova01.72@gmail.com)DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18931872>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada matn interpretatsiyasi masalasi zamonaviy tilshunoslik va semiotika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Matnni talqin etish jarayoni muallif niyati, kontekst, o'quvchi idroki va ijtimoiy-madaniy omillar asosida yoritiladi. Shuningdek, interpretatsiyaning lingvistik, kognitiv, pragmatik va psixologik xususiyatlari misollar asosida ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** matn, interpretatsiya, talqin, kontekst, pragmalingvistika, kognitiv yondashuv, muallif niyati, o'quvchi idroki.

**Аннотация.** В данной статье проблема интерпретации текста анализируется с точки зрения современной лингвистики и семиотики. Процесс толкования текста рассматривается на основе авторского замысла, контекста, восприятия читателя и социально-культурных факторов. Также на примерах раскрываются лингвистические, когнитивные, прагматические и психологические особенности интерпретации.

**Ключевые слова:** текст, интерпретация, толкование, контекст, прагмалингвистика, когнитивный подход, авторский замысел, восприятие читателя.

**Abstract.** This article analyzes the issue of text interpretation from the perspective of modern linguistics and semiotics. The process of interpreting a text is examined on the basis of the author's intention, context, reader perception, and socio-cultural factors. Furthermore, the linguistic, cognitive, pragmatic, and psychological features of interpretation are demonstrated through examples.

**Keywords:** text, interpretation, analysis, context, pragmalinguistics, cognitive approach, author's intention, reader perception.

**Kirish.** Matn tilshunoslikdagi asosiy tushunchalardan biri sifatida inson tafakkuri va mulqotining ifodasidir. Matnni to'g'ri anglash va uni talqin etish jarayoni o'ziga xos tafakkur faoliyatini talab etadi. Matn interpretatsiyasi — bu muallif tomonidan yaratilgan mazmuni o'quvchi tomonidan idrok etish, qayta anglash va tahlil qilish jarayonidir. Zamonaviy tilshunoslikda bu jarayon hermenevtika, semiotika, pragmalingvistika va kognitiv yondashuvlar asosida o'rganilmoqda. Matn interpretatsiyasi — bu matnda mujassam bo'lgan ma'noni ochish, uning ichki tuzilishi, kommunikativ maqsadi, pragmatik yo'nalishi va madaniy-kognitiv qatlamlarini ilmiy asosda talqin etish jarayonidir. Zamonaviy tilshunoslikda matnni faqat grammatik birliklar yig'indisi emas, balki semiotik, kognitiv va ijtimoiy-madaniy tizim sifatida o'rganish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Matn interpretatsiyasi matnning yashirin va ochiq ma'nolarini aniqlash, uni ijtimoiy-madaniy kontekstda talqin etish, muallif niyatini tahlil qilish va o'quvchining semantik idrokini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Matnni tushunish jarayoni ko'p bosqichli bo'lib, unda semantik, pragmatik, kognitiv va psixologik omillar birgalikda harakat qiladi. Matnning shakliy jihatlari — sintaktik va leksik birliklar — hamda mazmuniy jihatlari o'zaro uyg'unlikda tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Matn talqini masalasi ildizi hermenevtikaga borib taqaladi. Ushbu qarashlarga ko'ra, interpretatsiya — muallif, matn va o'quvchi o'rtasidagi dialogdir. Matn yuzasidan hermenevtika vakillaridan biri — Friedrich Schleiermacher — zamonaviy hermenevtikaning asoschilaridan bo'lib, matnni tushunishda muallif niyatini

tiklash g'oyasini ilgari surgan, grammatik va psixologik talqin farqini kiritgan, muallif niyatini rekonstruksiya qilish g'oyasini ilgari surgan. [1838.234]. Wilhelm Dilthey – gumanitar fanlarda tushunish (Verstehen) metodini ishlab chiqqan va matnni tarixiy-madaniy kontekstda talqin qilish zarurligini asoslagan, matnni tarixiy ong mahsuli sifatida tushunishni ta'kidlagan [1883.170]. Hans-Georg Gadamer – “Haqiqat va metod” asari muallifi bo'lib, “gorizontlar qo'shilishi” (Horizontverschmelzung) nazariyasini ilgari surgan va o'quvchi va matn o'rtasidagi dialogik munosabatni asoslagan “tarixiy gorizontlar qo'shilishi” konsepsiyasini ishlab chiqqan [1989.39]. Olim Paul Ricoeur matnni ko'p qatlamli ma'no tizimi sifatida talqin qilib, simvol va metaforaning interpretatsiyadagi rolini o'rgangan [1976.78]. Strukturalizm va semiotika vakillari Ferdinand de Saussure tilni belgilar tizimi sifatida talqin qilgan, matn interpretatsiyasining struktur asoslarini yaratgan [1916.83]. Roland Barthes “Muallifning o'limi” konsepsiyasini ilgari surgan. Talqinda o'quvchi markaziy o'ringa chiqishini asoslagan [1986.51]. Umberto Eco esa “Ochiq asar” nazariyasi muallifi bo'lib, matnning cheksiz talqin imkoniyatlari borligini ta'kidlagan [1981.84]. Yuri Lotman semiosfera nazariyasini yaratgan [1970.187]. Matnni madaniy kodlar tizimi sifatida talqin qilgan. Pragmatik va diskurs yondashuvlari ustida Mikhail Bakhtin tadqiqotlar olib borgan bo'lib, dialogizm nazariyasini ishlab chiqqan [1986.126]. Matnni ijtimoiy-muloqot jarayoni mahsuli sifatida talqin qilgan edi. Teun A. van Dijk diskurs tahlili va matn semantikasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan [1977.238].

Matnni kognitiv va ijtimoiy kontekstda talqin qilgan. Bu yondashuvda matn inson ongidagi konseptlar, freymlar va ssenariylar orqali talqin qilinadi. John Searle esa nutqiy akt nazariyasi asoschilaridandir. Matn ma'nosini kommunikativ niyat bilan bog'lagan.

O'zbek tilshunosligida matn va uning talqini masalalari quyidagi olimlar tomonidan o'rganilgan: Shavkat Rahmatullayev – matn lingvistikasi va semantika masalalari [1981 yil.300], Azizxo'ja Nurmonov – sistem-struktur va matn yondashuvlari [2008.180], Nodira Mahmudova – matn va diskurs masalalari, M.Yo'ldoshev – lingvopoetika va matn tahlili yuzasidan tadqiqotlar olib borganlar [2006.160].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tilshunoslikda matn va uning talqini masalalarini germenevtik metod orqali yoritiladi. Bu metod matnni tushunish va talqin qilish jarayoniga asoslanadi:

- Matnni muallif niyati va tarixiy sharoit bilan bog'lab o'rganadi.
- Matnning yashirin ma'nolarini ochishga harakat qiladi.
- Talqinda “butun va qism” munosabati muhim (germenevtik doira) asosida ifodalaydi.

Matn interpretatsiyasining bosqichlari:

1. Lingvistik tahlil: leksik-semantik tahlil, morfologik va sintaktik tuzilish kogeziya (bog'lanish vositalari).
2. Pragmatik tahlil: muallif niyati, auditoriyaga mo'ljal, kommunikativ strategiya.
3. Kontekstual tahlil: tarixiy sharoit, ijtimoiy-madaniy omillar, intertekstual aloqalar.
4. Kognitiv modellashtirish: konseptlar, metafora va simvollar, arxetiplar.

**Interpretatsiya turlari quyidagilar:**

Tur	Xususiyati
Lingvistik	Til birliklari orqali ma'noni ochish
Filologik	Matnni tarixiy-adabiy kontekstda talqin qilish
Pragmatik	Nutqiy maqsad va ta'sirni aniqlash
Kognitiv	Ongidagi bilim strukturalari asosida talqin
Lingvomadaniy	Milliy-madaniy kodlarni ochish

Ushbu matn interpretasiyasining turlari quyidagilarni aniqlaydi:

1. Lingvistik interpretatsiya – matnning grammatik, semantik va stilistik tuzilishini tahlil qilish orqali ma'no hosil qilish.
2. Hermenevtik interpretatsiya – matnni tarixiy, madaniy va falsafiy kontekstda anglash va izohlash.
3. Kognitiv interpretatsiya – matnni inson ongidagi konseptual bilimlar orqali idrok etish. o'quvchining bilim va tajribasi asosida matnni tushunish darajasini aniqlaydi.
4. Psixolinguistik interpretatsiya – o'quvchining psixologik holati va tajribasiga asoslangan talqin.
5. Kreativ interpretatsiya – o'quvchining ijodiy fikrlashi asosida yangi ma'no qatlamlarini hosil qilishi.
6. Semantik interpretatsiya — matnning lug'aviy va grammatik ma'nolarini ochadi.
7. Pragmatik interpretatsiya — matn ortidagi ijtimoiy va psixologik omillarni tahlil qiladi.
8. Estetik interpretatsiya — matnning badiiy qiymati va obrazlilik darajasini baholaydi.

Matn interpretatsiyasi uch bosqichda kechadi:

1. Matnni idrok etish — o'quvchi matn mazmunini tushunadi.
2. Tahlil bosqichi — matnning struktura va semantik tahlili amalga oshiriladi.
3. Talqin bosqichi — matndan yangi ma'no, g'oya yoki xulosa chiqariladi.

Matn interpretasiyasining asosiy kategoriyalari quyidagicha:

- Implitsitlik va eksplitsitlik
- Presuppozitsiya
- Intertekstuallik
- Diskurs
- Semantik ko'pqatlamlilik
- Retsepsiya nazariyasi.

**Tahlillar va natijalar.** Pragmalingvistika matni kommunikativ hodisa sifatida ko‘radi. Matn muallifining asosiy maqsadi — o‘quvchiga ma‘lum bir fikr yoki hissiy holatni yetkazishdir. Shu bois matn interpretatsiyasida nutqiy akt nazariyasi, presuppozitsiya va implikatura kabi tushunchalar muhim o‘rin tutadi. Masalan, muallif matnda ochiq aytilmagan, ammo kontekst orqali anglash mumkin bo‘lgan ma‘nolarni ham yaratadi. O‘quvchi esa bu ma‘nolarni kontekstual belgilar asosida tushunadi. Matn interpretatsiyasi jarayonida muallif va o‘quvchi o‘rtasida bilvosita muloqot mavjud. Muallif o‘z niyatini til birliklari orqali ifodalaydi, o‘quvchi esa ularni o‘z tajribasi va bilim doirasiga ko‘ra talqin etadi. Shu bois har bir o‘quvchi bir xil matndan turlicha ma‘no anglab chiqishi mumkin. Bu holat interpretatsiyaning sub‘ektivligidan dalolat beradi. Biroq aynan shu sub‘ektivlik matnning ko‘p qatlamli ma‘no tizimini ochishga imkon beradi. Kognitiv lingvistika matni inson ongidagi bilimlar, tajriba va konseptual tizimlar orqali tushuntiradi. O‘quvchi matni idrok etar ekan, uni o‘z bilim bazasi bilan solishtiradi va yangi ma‘no hosil qiladi. Bu jarayon kognitiv model sifatida talqin qilinadi, chunki matni tushunish – bu faqat til birliklarini emas, balki inson tafakkuridagi assotsiatsiyalarni ham qamrab oladi. Demak, interpretatsiya – bu fikrni qayta qurish jarayonidir. Matn interpretatsiyasiga zamonaviy yondashuvlar quyidagichadir:

1. Antropotsentrik paradigma — inson omili markazda.
2. Diskurs-tahlil — matni ijtimoiy amal sifatida o‘rganish.
3. Korpus lingvistikasi — katta ma‘lumotlar asosida interpretatsiya.
4. Raqamli gumanitar fanlar — algoritmik tahlil.

**Xulosa.** Matn interpretatsiyasi tilshunoslikda dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Matn interpretatsiyasi — ko‘pqirrali, integrativ jarayon bo‘lib, u til tizimi, inson ongi, ijtimoiy muhit, madaniy kodlar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatni ochib beradi. Zamonaviy tilshunoslikda interpretatsiya faqat ma‘noni “topish” emas, balki ma‘noni yaratish jarayoni sifatida qaraladi. U matn mazmunini anglash, muallif niyatini ochish va o‘quvchi tafakkurini faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Interpretatsiya jarayoni kognitiv, semiotik va pragmalingvistik omillarni o‘z ichiga oladi. Matni anglashda har bir o‘quvchi o‘z tajribasi va bilimi asosida ma‘noni qayta yaratadi, shuning uchun ham interpretatsiya doimo faol va ijodiy jarayondir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Karimov A. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Yo‘ldoshev M. Pragmalingvistika asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
3. Eco U. The Role of the Reader. – London: Hutchinson, 1981.
4. Gadamer H.-G. Truth and Method. – New York: Continuum, 1989.
5. Shokirova X. Matn va diskurs tahlili. – Toshkent: UBUS, 2023.
6. Lotman Y.M. Struktura khudozhestvennogo teksta. – Moskva: Iskusstvo, 1970.
7. van Dijk T.A. Text and Context. – London: Longman, 1977. – 238.
8. Bakhtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – Moskva: Iskusstvo, 1986.
9. Safarov Sh. Pragmalingvistika. –T.: Fan, 2008. –B.76.
10. Xomskiy N. Sintaksicheskiye strukturi// Novoye v lingvistike. –M., 1962. Vip.2. – C.192.
11. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – T.: Akademyashr, 2013. – 200-b.

12. Shokirova X. Savodxonlik asoslari. – Farg‘ona, Classic. 2023. – 186 b.
13. Shokirova X. O‘zbek tilida kesimlik kategoriyasi: shaxs aktanti va uning nutqiy voqelanishi. Filol.fan. nomz. diss. – Toshkent, 2009. – 127 b.
14. Shokirova X. Tilning lingvosemiotik strukturasi (semantik-sigmatik, sintaktik-pragmatik aspekt asosida). Filol.fan. doktori diss. – Farg‘ona, 2022. – 240 b.
15. Shokirova X. SEMIOTIK MODEL KONSEPSIYASI. Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024, 4-son. – 1840 b.

